

ABDULLA QODIRIYNING MEHROBDAN CHAYON ROMANIDA
XOTIN-QIZLAR OBRAZI

Ismoiljonova Nilufar Qahramonjon qizi

nilufarxonobidovna@gmail.com

Annotatsiya

Tezisdan Abdulla Qodiriyning Mehrobdan chayon romanida ayol ruhiyati tasviri yoritilishi, ijodkorning ayol psixologiyasini tasvirlashdagi mahorati haqida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: ayol ruhiyati, badiiy psixologizm, psixologik tasvir vositalari, jest (mimika), inson ruhiyati.

The Image of Women in Abdulla Qodiriy's Novel "Mehrobdan Chayon"

Annotation

The thesis discusses the description of the female psyche in Abdulla Qadiri's novel Mehrobdan Chayan, and the author's skill in depicting female psychology.

Key words: female psyche, artistic psychology, means of psychological imagery, gesture (mimicry), human psyche.

Образ женщин в романе Абдуллы Кадыри «Скорпион из алтаря»

Аннотация:

В статье рассматривается описание женской психики в романе Абдуллы Кадири «Мехробдан Чайан», а также мастерство автора в изображении женской психологии.

Ключевые слова: женская психика, художественная психология, средства психологического изображения, жест (мимикрия), психика человека.



KIRISH

Bugungi mustaqil O'zbekistonda ilm-fan, ta'lim- tarbiyaga katta e'tibor berilmoqda. Ta'bir joiz bo'lsa, mamlakatimizning dolzarb masalalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shunday ekan, ta'lim tarbiyaga ahamiyat bermasdan turib, taraqqiyot haqida gapirishning o'ziyoq quruq safsatadan boshqa narsa bo'lmaydi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari ahamiyatga molik: "Ma'lumki, otabobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan"¹

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotimizda ulkan o'zgarish va tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda har bir shaxs buyuk o'tmishimizni yaxshi bilgan holda kelajagimiz ravnaqi uchun eltadigan eng oqilona yo'llardan borishi kerak. Bunday oqilona yo'ldan davlatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimov ko'rsatib o'tganlaridek, "Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkuri va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari iqtisodiy o'zgarishlarning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi"². Xalqimizning ma'naviy qadriyatlarida san'at, ayniqsa, adabiyotning o'rni, uning xalq hayoti uchun naqadar zarur ekanligi hech birimizga sir emas. Prezidentimiz shuni inobatga olgan holda "Adabiyotga e'tibor –ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. Adabiyot masalasi - bu ma'naviy masalalardir"³, - deydi. Darhaqiqat, adabiyot Cho'lpon ta'biri bilan aytganda, "kirlangan ko'ngillarni tozalovchi, poklovchi bir buloq suvi kabidir".

Darhaqiqat, adabiyot yashasa millat yashaydi. Asrlar davomida adabiyotimizda, xalq og'zaki ijodimizda yoshlarning ta'lim tarbiyasiga badiiy adabiyotlarimizning ta'siri katta bo'ldi. Jumladan, "Alpomish", "Go'rog'li" kabi xalq dostonlarida, Alisher Navoiy, Lutfiy, Jomiy, shuningdek, milliy uyg'onish

¹ Karimov I.A Yuksak ma'navyat – yengilmas kuch. T.: Ma'navyat, 2013. –B. 60-61.

² Каримов И.А Маънавий юксалиш йулида. Т.: Ўзбекистон, 1998. В. 49.

³ Каримов И.А Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. Т.: Ўзбекистон 2009. –В.

davri vakillari Behbudiy, Munavvarqori Abdrashidxonov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va boshqa ijodkorlar asarlarida xalqni ma'rifatli bilimli qilish uchun targ'ib qilingan. Ularning asarlarida ko'tarilgan mavzu dolzarbligi bilan hozirga qadar olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda.

Shu mavzulardan biri ayollar va ularning erkinligi, qadr-qimmat, ularga nasl davom ettiruvchi emas balki ularga gumanitar munosabatda bo'lish, ularning ongi va savodini oshirish kabi masalalar milliy uyg'onish davrida ham hattoki hozir ham dolzarb masaladir. Milliy uyg'onish davri vakillari yaratgan asarlarda o'sha davr ayollarining turmushi, ularning shaxsiyatlari ochib berilgan. Shu bilan birga yevropa xalqlari yaratgan asarlarida ham ayollar obraziga alohida e'tibor berib o'rganish zarurdir. Biz asarlarda yaratilgan ayollar obraziga alohida to'xtalishimiz zarur.

Bunday ijodkorlardan biri Abdulla Qodiriydir. Uning asarlari yaratilgan davridayoq o'zbek va hatto xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani ham qodiriyshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Undagi ko'tarilgan mavzu ijtimoiy-siyosiy va oddiy xalq hayoti, qanchadan qancha ayollar taqdiri aks etgan. Shuning uchun ham bu romanni faqat biryoqlamalik, faqat xon va uning amaldorlari haqida o'rganmay asardagi xotin-qizlar masalasiga ham alohida e'tibor qaratmog'imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2013. – B. 60-61.
2. Abdulla Qodiriy. Tanlangan asarlar II jild "Mehrobdan chayon". Toshkent.: Info Capital Group
3. Xabibulla Qodiriy. Otam haqida. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983-yil





4. Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. Toshkent.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1994-yil 78-bet.
5. B. Karimov Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. Toshkent: Fan nashriyoti 2006-yil.
6. X. Lutfiddinova. Gullarning Ra'nosi. Toshkent: O'zbeiston, 1997.
7. Eden Naby. Transitional central Asian Literature: Tajik and o'zbek prose fiction from 1909 to 1932. Columbio university 1975.
8. Aliyev A. ijod va izlanishlar. Tosheknt: Adabiyot va san`at, 1976.

